

FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING NUTQDAGI AHAMIYATI**Ibrohimova Dilnavoz Erkinovna**

BuxDU Pedagogika instituti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6589116>

ANNOTATSIYA: Ushbu maqola bugungi kunda insonlar o'rtasidagi nutqni rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, unda til haqida ayrim mulohazalar haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: nutq, frazeologik birliklar, leksema, so'z boyligi.

O'quvchilar nutqi, odatda, ularning o'z fikrini chiroyli ifoda etishga intilmasligi, nutqiy tafakkuri va so'z zaxirasining kamligi bilan izohlanadi. Sir emaski, ular o'z fikrlarini xoh yozma, xoh og'zaki shaklda ifoda etishda ko'plab xatoliklarga yo'l qo'yishadi, shuningdek, nutq madaniyatiga umuman rioya qilishmaydi. **K.I.Chukovskiy** fikri bilan aytganda: "...nafaqat o'quvchi, balki ko'plab kishilarda fikrlar tartibsiz, yarim yalong'och, uyqusiragan holda yuzaga chiqadi".

Hozirgi kunda har bir ona tili fani o'qituvchisi o'quvchilarda nutqiy tafakkurni shakllantirishi, har bir talaffuz etilayotgan so'zning ma'nosini teran anglashini uqtirishi zaruriy vazifalardan sanaladi. Albatta, o'quvchilarda nutqiy tafakkurni shakllantirish o'qituvchidan uzoq vaqt va mashaqqatli mehnat, shuningdek, metodik mahorat, amaliy tajriba hamda darsni yaxshi tashkil eta olish qobiliyatini talab etadi.

Ma'lumki, o'zbek xalqiga xos matnlar, hikoyalarda ko'plab frazeologik birliklar uchraydi, o'quvchilar ularning shunchaki ma'nolarini, albatta, matn tarkibida tushunib oladilar. Biroq frazemalar tarkibidagi so'zlarning bosh va ko'chma ma'nolarini ular faqat leksikologik tahlilga asoslangan topshiriqlar orqali anglaydi. Bu jarayonda o'quvchilar nutqiy tafakkurini shakllantirishda frazeologik birliklardan ko'proq foydalanish zarur.

O'quvchi nutqiy tafakkurining shakllanishi va uning intellektual salohiyati oshishida frazeologik birliklar ustida ishlash juda qo'l keladi. Bunda o'qituvchi dastlab frazeologik birliklarning aniq talqinini keltiradi, so'ng tilshunoslik va mantiqiy nuqtayi nazardan ularning mazmunini tushuntirib, o'quvchilarni aqliy faoliyat yuritishga undaydi. Natijada o'quvchi mushohada qila boshlaydi. Masalan, "osmonda uchmoq" frazemasini olinib, uning ma'nosi



aniqlanadi. Shuningdek, uning “xursand bo’lmoq” leksemasi bilan bir ma’noni anglatishi tahlil qilinadi. Bu jarayon o’quvchini “osmon” leksemasi nima uchun qo’llanganligini mushohada qilishga undaydi. Uning tafakkurida endi osmon, balandlik, yer sharidan uzilish – uchmoq leksemalari gavdalanadi. Natijada turli frazeologizmlarning ma’nolarini shu tarzda talqin qilish o’quvchilarni ko’p ma’noli so’zlarga murojaat qilishga undaydi. O’qituvchi tomonidan taqdim etilgan kichik-kichik matnlar yoki so’z birikmalari orqali o’quvchilar endi so’zlarning bosh va ko’chma ma’nolarini tushuna boradilar.

O’zbek tili bir ma’noli (monosemantik) va ko’p ma’noli (polisemantik) so’zlar asosiga qurilgan. Shulardan eng ko’p qo’llanadigani ko’p ma’noli so’zlardir. Bunga sabab tilda har bir birlikka nisbatan alohida-alohida nom qo’yaverish natijasi tildagi so’zlarning soni haddan ziyod darajada oshib ketadi. Buning natijasida nafaqat ushbu tilda so’zlovchi, balki bu tilni o’rganishga havasmandlarga ham noqulayliklar tug’dirib tilga bo’lgan mehr va o’rganish ishtiyoqi so’nib boradi. Natijada bu til butunlay o’lik tilga aylanadi. Tilda ko’p ma’noli so’zlarning soni juda ko’p bo’lishi yaxshi, albatta. Lekin bir muammo hali hanuzgacha o’z yechimini topmayotgani kishi ko’nglini biroz xira qiladi. Bu tilni ma’lum bir qoliplarga kiritish natijasida kompyuterlar ham o’qiy oladigan va bemalol tarjima qilish imkoniyatini yaratishdir. Bu yo’nalishda juda katta mablag’lar sarflaganiga qaramay, ishlar yurishmayotgan, deyarli birorta jo’yali natijaga erishayotganimiz yo’q. Masalan, biror bir boshqa tildagi birima yoki gapni o’zbek tiliga tarjima qilishda juda ko’p mushkulotlarga uchraysiz. Google tarjimon ko’rsatilgan jumlaning tarjima qilishga tarjima qilib beradi. Bu yaxshi, albatta, lekin oyog’ini osmondan qilib tarjima qiladi. Bunga sabab nimada? Bu muammolarni kim va qachon hal qiladi? Ana shunisi muhim. Yuqorida aytilganidek ko’p ma’noli so’zlarning o’rni juda muhim. Frazalarning ahamiyati esa undanda muhim. Xo’sh, muammo nimada axir deyishingiz tabiiy hol. Bu muammolar yechimini uzoq davrlardan ya’ni XI asrda yashab o’tgan buyuk qomuschi olim Mahmud Qoshg’ariyning “Duvon lug’ot-u at-turk” asariga murojaat qilish orqali qisman javob topish mumkin. Mahmud Qoshg’ariy turkiy til imkoniyatlari arablarga ko’rsatish uchun bu asarni aynan arab tilida yozganligi, bu ikki tilni, ya’ni turk va arab tilini ikki uloqchi otaga o’xshatib, bu poygada turk tilini o’zib ketayotganligini yaxshi bilamiz. Shu asar davomi o’laroq XV asrda yaratilgan hazrat Mir Alisher Navoiy qalamiga mansub “Muhokamat ul-lug’atayn” asariham turkiy tilning naqadar go’zal va jozibador ekanligini ko’rsatib berilgan.



Hazrat ustoz ortigan ergashi endilikda turk va fors tili o`zaro qiyoslar ekanlar turk tilida birgina "yig`lamoq" fe`lining yuzga yaqin ma`nolari sanab o`tar ekanlar, fors tilida bunday lafzlar yo`qligini bot-bot yirik misollar orqali isbotlaganlar. Navoiydan keyin ham juda ko`p ijodkorlar turkiy tilning mavqeyi ko`tarish maqsadida hatto fors tilida ijodni qilishni to`xtatib, barcha asarlarini turkiy tilda bitganlar.

Alisher Navoiy hassos tilshunos sifatida forsiy til amaliyotida turkiy tildan o`tgan so`zlarga ham e`tibor qaratadi. Masalan, *tubichoq*, *arg`umoq*, *yaka*, *yobu*, *totu* singari ot turlarini, *dastor*, *qalpoq*, *to`ppi*, *shirdog`*, *yog`lig`* singari bosh kiyimlarini, *qo`rchi*, *suvchi*, *qushchi*, *qo`ruqchi*, *kiyikchi*, *kemachi*, *qo`ychi* singari kasb va hunarlarning nomlarini forsiylar ham turkiycha so`zlar bilan yuritishi ko`rsatiladi.

Tildagi barcha birliklarda ko`p ma`nolilik xususiyati mavjud. Bunga misol sifatida qo`shimcha, so`z va iboralarni kiritish mumkin. Tilni avtomatlashtirishdan oldin undagi barcha birliklarni bor budicha electron shaklga o`tkazish zarur, Shunda bu muammoga yechim topiladi. Bu ish o`z-o`zidan amalga oshadigan jarayon emas. Avtomatlashtirish uchun juda ko`p vaqt va mablag` sarf etiladi. Ishni dastlab tilimizga chet tillaridan o`zlashib qolgan birliklarni muqobiliga almashtirishdan boshlash zarur. Bu ishni ilgari ham olimlar amaliyotda sinab ko`rgan, lekin aks tasr ko`rsatgan. Sabab til hech qachon zo`rma-zo`raki tiqishtirilgan birliklarni qabul qilmaydi. Bu ishni sekin-astalik bilan chuqur tahlil natijasida amalga oshirish lozom. Shundagina ko`zlangan natijaga erishish mumkin.

Bugungi avlod, ya`ni yoshlar texnikalar rivojlangan, ko`p sohada robotlar inson faktirini yo`qqa chiqargan va chiqarayotgan davrda yashashmoqda. Endi tom-tom lug`atlar juda kata bo`lgan kitoblarga zaruriyat qolmayapti, chunki zamon shuni talab qilyapti. Xalqimizda bir naql bor: "Zamon senga boqmasa, sen zamonga boq". To`g`ri hamma narsada globallashtirish jarayoni yuz bermoqda faqat ushbu jarayondan oqilona foydalanmoq zarur, texnika ishni yengillashtiryaptimi unda ushbu qurilmadan foydalanish zarur, kitob kerakmi unda marhamat. Shundan ehtiyot bo`lmoq lozimki, bugungi yoshlarning qo`lidagi texnika butunlay miyasini zaharlamasdan turib, qalbi va ongini bloklamasdan turib qamchini qattiqroq bosib harakat qilish zarur. Biz bekorga qayta-qayta yoshlar bizning kelajagimiz tayanchi deya takrorlamaymiz. Kelajak qo`lid abo`lgan



yoshlarni ham ma'nan, ham jismonan yetuk avlod bo'lib yetishishi uchun qo'limizdan kelgan barcha imkoniyatlarni ishga solishimiz, munosib avlodlarga xos loyiq ajdod bo'lish uchun kechni kecha kunduzni Kunduz demasligimiz zarur.

Tildagi barcha ortiqcha narsalar yurtga kirib kelgan yov misol. Bu yovga qarshi kurashish uchun barcha vositalardan foydalanish, kerak bo'lsa yangilarni kashf qilish lozim. Aks holda, bu yovlar tilning tub ildizlariga zarba berishi, aslyatda mavjud bo'lgan qirralar va m'nolarning yo'q bo'lib ketishi uchun zamin hozirlashi mumkin.

Millatni tili va madaniyati yo'q qilishga hech qachon, zinhor-bazinhor yo'l qo'ymaslik zarur. Bizning butun dunyo tan oladigan, asarlaridan haligacha foydalanib kelinayotgan bobokalonlarimizning meroslarini asrab-avaylash, ularni kelasi avlodga bus-butun yetkazish siz-u bizga ham qarz, ham farzdir.

Ушбу мақолада ўқув луғатларининг умумий луғатлардан нафақат ҳажми, балки ундаги сўзларнинг танланиш мезонлари, луғат қисмларининг таркиби, жойлашуви – мегаструктураси билан ҳам фарқланиши, синоним ўқув луғатлар луғат мақоласи таркибида лексикографик пометалар (турли қисқартмалар, белгилар)га кам ўрин берилганлиги муҳокама қилинади.¹

This article is dedicated to the research of Adjusted meanings of Moral-spiritual concept defining units in the Uzbek language. And also analyzed the semantic analysis of grammatical shape lexemes of specialized meaning and provide a corresponding recommendation for lexicographical practice in the Uzbek language is one of the actual challenges of linguistics as today's challenge.²

Корпус лингвистикасида семантик разметка, унинг теглар тизими, тег категориялари, семантик теглаш муаммолари, кўпмаънолилик ва омонимлик муаммосини ечиш масаласига оид қатор тадқиқотлар вужудга келган.³

¹ Гуландом Мирханова. (2022). СИНОНИМ СЎЗЛАР ЎҚУВ ЛУФАТИНИНГ УМУМИЙ ТУЗИЛИШИ. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 1(2), 172–178. Retrieved from <http://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/90>

² Gulbahor, T. (2016). Adjusted Meanings of Moral-Spiritual Concept Defining Units. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, 5(7), 40-45.

³ Ахмедова, Д. (2020). Семантик разметка тизимида тег гуруҳлари. *Oriental Art and Culture*, (III), 440-444.



The article discusses the research methods of Uzbek language syntax. In Uzbek linguistics, syntactic phenomena have been studied in detail since the 1930s, and several syntactic theories have emerged in this regard.⁴

The article examines the first dictionary in the Turkish language Mahmud Kashgaris “Devonu lugotit turk” in terms of a dictionary in accordance with the traditions of world lexicography and argues that it is the first appearance of modern complex dictionaries in the Turkish (Uzbek) language.⁵

Now studying scientific heritage, socio-political activities and acquaintance youth charity of our above-stated ancestors is considered one of the main urgent objectives of the modern intellectuals.⁶

This article covers the main place of small business and business in today's market economy. Including scientifically analyzed the development of small business and business, and the legal basis, at this time financially support small business and business, the latter is amended and the rules for this branch of national legislation are added.⁷

Мамлакатимиз тараққиётининг янги босқичида жамият ҳаётининг асосий негизи бўлмиш оилалар барқарор муҳитини мустаҳкамлаш ва бу масалаларда хотин-қизларнинг ўрни ва аҳамияти ошириш долзарб аҳамият касб этмоқда. Юртимиз аҳолисининг тенг ярмига яқинроғини ташкил этадиган хотин-қизлар жамиятнинг барча соҳаларида самарали фаолият юритмоқда.⁸

Badiiy adabiyotning qamrov darajasi keng sanaladi. Zero undagi janrlarning har biri insonning kamoloti uchun xizmat qiladi.⁹

⁴ Ergashevna, Y. N. (2021). ON METHODS OF RESEARCH OF UZBEK LANGUAGE SYNTAX. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(11), 22-28.

⁵ Bakhriddinova, B. M. (2020). “DEVONU LUGOTIT TURK” AS A FIRST VIEW OF MODERN COMPLEX EDUCATIONAL DICTIONARIES. *Theoretical & Applied Science*, (4), 981-985.

⁶ Tolibjonovich, M. T. (2021). EASTERN RENAISSANCE AND ITS CULTURAL HERITAGE: THE VIEW OF FOREIGN RESEARCHERS. *ResearchJet Journal of Analysis and Inventions*, 2(05), 211-215.

⁷ Tolibjonovich, Madumarov T., and Gulomjonov O. R. Ogli. "Lombard Microcredit Organization Its Concept and Its Importance Today." *JournalNX*, vol. 6, no. 10, 2020, pp. 109-111.

⁸ Мадумарова Зиёдахон. (2022). ЯНГИЛАНАЁТГАН ЎЗБЕКИСТОНДА ГЕНДЕР МУАММОЛАРИНИ БАТРАРАФ ЭТИШДА АХЛОҚИЙ ҚАДРИЯТЛАРИНИНГ ЎРНИ. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6569712>

⁹ Oripova Kamola. (2022). O'ZBEK VA FRANSUZ TILLARIDAGI MAQOLLARDA JON KONSEPTINING IFODALANISHI. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 1(3), 398–408. Retrieved from <http://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/209>

Ushbu maqolada vatanparvarlik va millatparvarlik kabi axloqiy tushunchalar, hamda ularning mazmun mohiyati Somerset Moem qalamiga mansub bo'lgan "Bo'ysunmagan" ("The Unconquered") deb nomlangan hikoyaning syujeti va bosh qahramonlarning xarakterini tahlil qilish orqali ochib beriladi¹⁰

The article examines the role of dictionaries and their content, and, in particular, defines the role of explanatory dictionaries, from their compilation to their semantic meaning. Examples of lexical units and their meanings are given. Attention is drawn to the structure of explanatory dictionaries as a constituent part of the dictionaries as a whole.¹¹

In this article are given the importance, role, types of the family in modern society. Its development from ancient times till present is widely described in this article.¹²

The widespread introduction of new pedagogical technologies in teaching students of higher educational institutions and the effective use of innovative technologies are the main support for improving the quality of education.¹³

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Гуландом Мирханова. (2022). СИНОНИМ СЎЗЛАР ЎҚУВ ЛУҒАТИНИНГ УМУМИЙ ТУЗИЛИШИ. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 1(2), 172–178. Retrieved from <http://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/90>
2. Gulbahor, T. (2016). Adjusted Meanings of Moral-Spiritual Concept Defining Units. *ANGLISTICUM. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies*, 5(7), 40-45.
3. Ахмедова, Д. (2020). Семантик разметка тизимида тег гуруҳлари. *Oriental Art and Culture*, (III), 440-444.

¹⁰ Pulatova Sabina. (2022). VATANPARVARLIK AXLOQNING ASOSIY TUSHUNCHALARIDAN BIRI SIFATIDA. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 1(3), 357–368. Retrieved from <http://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/205>

¹¹ Bobomurodova, L. K. (2021). FEATURES OF THE COMPILATION OF MODERN EXPLANATORY DICTIONARIES.

¹² Nasriddinovich, A. A. (2020). THE FEATURES OF APPEARING FAMILY IN MODERN SOCIETY. *European science review*, (3-4), 69-72.

¹³ Jamoliddinovich, U. B. (2022). FUNDAMENTALS OF EDUCATION QUALITY IN HIGHER EDUCATION. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429*, 11(01), 149-151.



4. Ergashevna, Y. N. (2021). ON METHODS OF RESEARCH OF UZBEK LANGUAGE SYNTAX. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(11), 22-28.
5. Bakhridinova, B. M. (2020). "DEVONU LUGOTIT TURK" AS A FIRST VIEW OF MODERN COMPLEX EDUCATIONAL DICTIONARIES. *Theoretical & Applied Science*, (4), 981-985.
6. Tolibjonovich, M. T. (2021). EASTERN RENAISSANCE AND ITS CULTURAL HERITAGE: THE VIEW OF FOREIGN RESEARCHERS. *ResearchJet Journal of Analysis and Inventions*, 2(05), 211-215.
7. Tolibjonovich, Madumarov T., and Gulomjonov O. R. Ogli. "Lombard Microcredit Organization Its Concept and Its Importance Today." *JournalNX*, vol. 6, no. 10, 2020, pp. 109-111.
8. Мадумарова Зиёдахон. (2022). ЯНГИЛАНАЁТГАН ЎЗБЕКИСТОНДА ГЕНДЕР МУАММОЛАРИНИ БАРТАРАФ ЭТИШДА АХЛОҚИЙ ҚАДРИЯТЛАРНИНГ ЎРНИ. <https://doi.org/10.5281/zenodo.6569712>
9. Oripova Kamola. (2022). O'ZBEK VA FRANSUZ TILLARIDAGI MAQOLLARDA JON KONSEPTINING IFODALANISHI. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 1(3), 398-408. Retrieved from <http://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/209>
10. Pulatova Sabina. (2022). VATANPARVARLIK AXLOQNING ASOSIY TUSHUNCHALARIDAN BIRI SIFATIDA. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 1(3), 357-368. Retrieved from <http://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/205>
11. Bobomurodova, L. K. (2021). FEATURES OF THE COMPILATION OF MODERN EXPLANATORY DICTIONARIES.
12. Nasriddinovich, A. A. (2020). THE FEATURES OF APPEARING FAMILY IN MODERN SOCIETY. *European science review*, (3-4), 69-72.
13. Jamoliddinovich, U. B. (2022). FUNDAMENTALS OF EDUCATION QUALITY IN HIGHER EDUCATION. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(01), 149-151.